| Корпоративные структуры и их влияние на развитие учета и отчетности .....                                                                            | 1498 |
| <b>Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи</b>                                                                                                               |      |
| Происхождение и роль социального сельского хозяйства в современной экономике .....                                                                   | 1506 |
| <b>Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович</b>                                                                                                               |      |
| Анализ конкурентной среды: примеры, методы и этапы .....                                                                                             | 1512 |
| <b>Садикова Раъно Абдуллаевна</b>                                                                                                                    |      |
| Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning tahlili .....                                                                                 | 1518 |
| <b>Djalilov Dostonbek Abduazizovich</b>                                                                                                              |      |
| Исследование методов бетонной смеси.....                                                                                                             | 1524 |
| <b>Шарипова Мадина Конгратбаевна</b>                                                                                                                 |      |
| Oilaviy biznesni boshqaruv tuzilmasi .....                                                                                                           | 1532 |
| <b>Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li</b>                                                                                                        |      |
| Strategies for Advancing Green Construction:<br>The Influence of Business Investment in Research and Development .....                               | 1537 |
| <b>Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostona Kulova</b>                                                                                                  |      |
| Kichik tadbirkorlik faoliyatini samarali yuritishning asosiy shart va tamoyillari .....                                                              | 1545 |
| <b>Vaxabov Asadullo Ubaydullo o'g'li</b>                                                                                                             |      |
| Оптимизация корпоративного управления через сбалансированное финансовое стратегирование.....                                                         | 1549 |
| <b>Ахмедов Дилшод Турсункулович</b>                                                                                                                  |      |
| Milliy iqtisodiyotning o'sishida agroklastarlarni shakllantirish va samaradorligini oshirish<br>hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish..... | 1553 |
| <b>Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich</b>                                                                                                             |      |
| Improving the Efficiency of the Organization Through<br>the use of Innovative Models of Personnel Management .....                                   | 1559 |
| <b>Bahodurova Sulhiya Azizhojaevna, Akhmedov Usmonjon Khaidarjonovich,<br/>Li Marina Rudolfova, Romashkin Roman Anatolyevich</b>                     |      |
| Факторы влияющие на экономический рост в развитии экономики Нового Узбекистана .....                                                                 | 1569 |
| <b>Мамедов Хусан, Хамраев Олимжон Яхшибоевич</b>                                                                                                     |      |
| Sug'urta bozori bo'yicha risklarni baholash va obyektini sug'urtaga qabul qilishda<br>anderrayting xizmatining tutgan o'rni.....                     | 1576 |
| <b>Sayfullo Mirzoyev</b>                                                                                                                             |      |
| Klaster korxonalar faoliyatini takomillashtirishda soliq yukini yengillashtirilishi.....                                                             | 1581 |
| <b>Jabbarov Mashrab Ismoil o'g'li</b>                                                                                                                |      |
| Xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllarining asosiy belgi va xususiyatlari .....                                                            | 1586 |
| <b>Vaxabov Asadullo Ubaydullo o'g'li</b>                                                                                                             |      |
| Kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini baholash .....                                                                 | 1589 |
| <b>Vahobov Davron Abdujalolovich</b>                                                                                                                 |      |



# KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB- QUVVATLASH TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

**Vahobov Davron Abdujalolovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining samarali tashkil etilish holatini sotsiologik so'rov asosida baholangan. Unda asosiy e'tibor davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining qaysi bosqichlarida saraliroq ekanligi aniqlangan. Tadqiqot davomida tadbirkorlik subektlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari soliqqa tortish tizimini, umuman, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirishni takomillashtirish, shu bilan birga, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rish zarurligini aniqladi.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes subyektlari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, faoliyat samaradorligi.

**Abstract:** This article evaluates the state of effective organization of the state support system for small business entities based on a sociological survey. In it, the main focus is determined on which stages of the activity of small business entities are the most effective state support mechanisms. During the research, the results of the survey among the business subjects revealed the need to improve the taxation system, the development of the business support infrastructure in general, and at the same time, to take appropriate measures to eliminate administrative obstacles.

**Key words:** small business entities, state support, efficiency of activity.

**Аннотация:** В данной статье на основе социологического опроса оценивается состояние эффективной организации системы государственной поддержки субъектов малого предпринимательства. В нем основной акцент определен на том, на каких этапах деятельности хозяйствующих субъектов действуют наиболее эффективные механизмы государственной поддержки. Результаты опроса, проведенного среди субъектов предпринимательства в ходе исследования, свидетельствуют о совершенствовании системы налогообложения, развитии инфраструктуры поддержки бизнеса в целом и одновременно принятии соответствующих мер по устранению административных препятствий, определили необходимость проведения исследования.

**Ключевые слова:** субъекты малого предпринимательства, государственная поддержка, эффективность деятельности.

## KIRISH

Har qanday iqtisodiy rivojlanish mamlakat aholisining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish darajasi bilan yaqindan bog'liq. Shuni tushunish kerakki, kichik biznes korxonalarini qo'llab-quvvatlash tizimlari qanchalik yaxshi bo'lsa, kichik biznes subyektlarining jamiyatda iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishdagi samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi<sup>1</sup>. So'nggi yillarda O'zbekiston Hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha mas'ul idora va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan salmoqli ishlarga qaramay, KBSlarining umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlari natijalari qoniqarli emas.

Demak, KBSlari O'zbekistonda aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadiga erishish uchun yanada samaraliroq bo'lishga yordam berish uchun uni qo'llab-quvvatlovchi samarali muhitga ehtiyoj katta. O'zbekistonda kichik biznes korxonalarni qo'llab-quvvatlash muhiti muhim deb hisoblanganda, uning holatini tadqiqot orqali o'rganish va baholash lozim, deb hisoblaymiz. O'zbekistonda kichik biznes korxonalari o'z potentsiallariga erishish uchun yetarli darajada qo'llab-quvvatlovchi muhit mavjudmi? Bu savolga javobni topish uchun KBSlarining mamlakatdagi mavjud qo'llab-quvvatlash tizimlaridan qoniqish darajasini baholash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Demak, KBSlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini tadbirkorlarning qoniqish darajasini baholash yo'li bilan aniqlash mumkin, chunki mamlakatda shu kunga qadar bu sohada yetarlicha tadqiqotlar o'tkazilmagan.

<sup>1</sup> Acs, Z. J(2008). "Introduction to Public Policy in an Entrepreneurial Society" p-17, Public Policy in an Entrepreneurial Economy: creating the conditions for business growth, in Acs, Z. and Stough, R. (Eds.) Washington, Springer.



## ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugunga qadar kichik biznes sub'ektlarini davlat tomonidan tartibga solish muammolariga qaratilgan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarning ko'pchiligida tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning ayrim jihatlarinigina ko'rib chiqqanlar. Bundan tashqari, O'zbekiston iqtisodiyotiga moslasha oladigan o'xshash geografik va iqtisodiy pozitsiyaga ega bo'lgan mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari mukammal va tizimli ravishda o'rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotda kichik biznes subyektlarining faoliyatning turli bosqichlarida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining tartibga solish shaklidan qoniqish darajasini baholash muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Iqtisodchi olimlar Rumi va Hussainlar KBSlari uchun davlat tomonidan tartibga solish shaklini ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi va aksariyat hollarda muvaffaqiyatsizlikka olib keladigan omil sifatida o'z tadqiqotlarida xulosaga keldilar. Masalan, davlatning import o'rnini bosish strategiyasini amalga oshirish orqali kichik biznes subyektlari faoliyatini tartibga solish siyosati bunday korxonalarning asosan mahalliy bozorlarga e'tibor qaratishga va natijada, eksport hajmining kamayib ketishiga olib kelishi mumkin.

Yana bir manbada, tartibga soluvchi turli davlat institutlari yoki qat'iy tartibga soluvchi muhit ko'pincha korupsiya va poraxo'rlik bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltirishi mumkinligi asoslangan.

XMT hisobotida, institutsional moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyati yo'qligi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda KO'B rivojlanishi uchun asosiy to'siqdir.<sup>2</sup>

Yana bir iqtisodchi olim Ngvuonugu, kredit olish imkoniyati va venchur kapitalining yetishmasligi Nigeriyada KO'Bning zaif o'sishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar ekanligini aniqladi.<sup>3</sup>

Sohada tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlar Ganesh va Mehtalar o'z tadqiqotlarida kichik va o'rta biznes korxonalarining o'sishi va rivojlanishiga xodimlarning texnologik bilimlarining yetishmasligi hamda korxonalarning zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi to'siq bo'layotgani bilan izohlaydi.<sup>4</sup>

Iqtisodchi olim Levining Jahon banki konferensiyasiga taqdim etgan ma'ruzasida kichik va o'rta korxonalarning rivojlanishi va raqobat kurashini yengib chiqishi uchun yetarlicha tadqiqot va ishlanmalar hamda innovatsiyalarga ko'proq e'tibor va mablag' ajratish lozimligini ta'kidlab o'tadi.<sup>5</sup>

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot muhimligini hisobga olgan holda, O'zbekistonda rasmiy tarzda tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorlik darajasi so'rovnoma asosida o'rganildi. Tadqiqot davomida Toshkent viloyatidagi turli soha va tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan 211 ga yaqin kichik biznes subyektlari so'rovnoma usuli asosida o'rganildi.

211 tanlab olingan KBSlari soni ushbu tadqiqot uchun yetarli ekanligi asoslandi. Shunga ko'ra, tadqiqot tahlilida 183 ta maqbul, deb topilgan anketalar ishtirko etadi, bu namunaviy o'lcham tadqiqot talabi uchun yetarli hisoblanadi. Shuningdek, asosan to'rta soha bo'yicha KBSlari tanlab olindi. Sababi bu soha subyektlari iqtisodiy faoliyatda ko'proq faol ekanliklari kuzatildi. Shuningdek, tadqiqot uchun olingan xududlar bo'yicha bu sohalarida faoliyat yurituvchi KBS lari soni ham ko'proqni tashkil etadi.

## 2.3.1-jadval: Tadqiqot namunasi statistikasi

| Tarmoq va sohalar          | Tanlangan soha va hududagi KBSlarining umumiy soni | So'rovnomada ishtirok etgan KBSlari soni (umumiy sonning 10 foizi) | Anketani to'ldirgan KBSlari soni | Maqbul topilgan anketalar soni |
|----------------------------|----------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|----------------------------------|--------------------------------|
| Qurilish                   | 197                                                | 20                                                                 | 19                               | 18                             |
| Xizmat ko'rsatish          | 606                                                | 60                                                                 | 51                               | 50                             |
| Sanoat va ishlab chiqarish | 416                                                | 41                                                                 | 34                               | 31                             |
| Qishloq xo'jaligi          | 902                                                | 90                                                                 | 86                               | 84                             |
| Jami                       | 2121                                               | 211                                                                | 190 (89%)                        | 183 (85,3%)                    |

2 ILO (2002). "Creating a Conducive Policy Environment for Micro, Small and Medium Sized Enterprises in Pakistan."SEED Working Paper No.29.

3 Ngvuonugu,A, B(2005). "Small andMedium Enterprises(SMEs) in Nigeria: Problems and Prospects, PhD Dissertation St.Clements University, Nigeria (unpublished).

4 Ganesh, L., Mehta, A(2010). Critical success factorsfor successful enterprise resource planning implementation at Indian SMEs, International Journal of Business, Management and Social Sciences, Vol.1, No.1, 2010, pp. 65-78.

5 Ivy (1997). "Entrepreneurship Strategies and Problems in Post Communist Europe:A Survey of SMEsin Slovakia." Journal of Small Business Management 35(3): 93-98



Ushbu so'rovnoma Laykert shkalasi (Likert scale) asosida tuzib chiqildi. Bu uslubga ko'ra 5ta parametrlar (o'lchovlar) asosida tuzilgan 12 ta savollarga javoblar quyidagi tartibda shakllantiriladi: "5"-qat'iy qo'shilaman, "4"-qo'shilaman, "3"-ishonchim komil emas, "2"-qo'shilmayman, "1"-umuman qo'shilmayman.

Tadqiqotni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: tashkiliy (tayyorgarlik); so'rovnomaning tashkil etish jarayoni; olingan natijalarga qayta ishlov berish bosqichi; natijalar asosida xulosalar tayyorlash va faoliyatni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish. Laykert shkalasi (Likert scale) asosida tuzib chiqilgan so'rovnoma variantlarining likvidligi va ishonchligi uning ichki turg'unligini baholash orqali asoslangan.

So'rovnoma anketasidagi savollar beshta bo'limga ajratilgan holda shakllantirilgan bo'lib, har bir bo'lim mamlakatda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash shakllarini ifoda etadi. Ya'ni, birinchi bo'lim "tartibga solish" shakli, ikkinchi bo'lim "moliyaviy ko'mak" shakli, uchinchi bo'lim "texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash" shakli, to'rtinchi bo'lim "ta'limni qo'llab-quvvatlash" shakli va nihoyat beshinchi bo'lim "tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash" shakli bilan bog'liq mustaqil o'zgaruvchilardan iborat. Har bir mustaqil o'zgaruvchi tadbirkorlik faoliyatni yo'lga qo'yishda, faoliyat davomida va tadbirkorlikni o'sish bosqichidagi qo'llab-quvvatlash siyosati holatini baholashni nazarda tutadi. Ushbu tadqiqotdagi tobe o'zgaruvchi esa - bu tadbirkorlarning "qoniqish darajasi" sifatida qabul qilinadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Anketaning ichki turg'unligini va ichki moslik ishonchligini baholash uchun "IBM SPSS Statistics 22.0" dasturi yordamida "Kronbax Alfa" (Cronbach's alpha) koeffitsiyenti qo'llanilgan.

### 2.3.2-jadval: So'rovnoma ishonchligini tekshirish natijalari

| Anketa bo'limlari                                   | Kronbax Alfa | O'rtacha qiymat (mean) | SD    |
|-----------------------------------------------------|--------------|------------------------|-------|
| Tartibga solish shakli                              | 0.891        | 2.077                  | 0.835 |
| Moliyaviy ko'mak shakli                             | 0.887        | 2.579                  | 0.955 |
| Texnik-texnologik ko'mak shakli                     | 0.897        | 2.062                  | 0.659 |
| Ta'limni qo'llab-quvvatlash                         | 0.825        | 2.313                  | 0.880 |
| Tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash shakli | 0.890        | 1.903                  | 0.941 |
| Qoniqish darajasi                                   | N/A          | 2.098                  | 0.799 |

Yuqoridagi jadvalda anketaning barcha bo'limlari va mustaqil o'zgaruvchilar ishonchligi qabul qilinadigan diapozonda (0,825 dan 0,891 gacha) ekanligini ko'rsatmoqda. Tartibga solish shakli ishonchligi ( $\alpha=0.891$ ,  $M=2.077$ ,  $SD=0.835$ ) eng yuqori natijani qayd etdi, undan keyin esa tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash shakli ( $\alpha=0.890$ ,  $M=1.903$ ,  $SD=0.941$ ) ham yuqori natijaga ega. Eng kam ko'rsatkich ta'limni qo'llab-quvvatlash shaklida qayd etildi ( $\alpha=0.825$ ,  $M=2.313$ ,  $SD=0.880$ ).

So'rovnoma tarkibi va undagi o'zgaruvchilarning me'yoriyligi ham tekshirib chiqildi.

### 2.3.4-jadval: So'rovnoma anketasi tarkibi va undagi o'zgaruvchilarning me'yoriyligi statistika

| Anketa bo'limlari                                   | Skewness | Kurtosis |
|-----------------------------------------------------|----------|----------|
| Tartibga solish shakli                              | 0.891    | 2.077    |
| Moliyaviy ko'mak shakli                             | 0.887    | 2.579    |
| Texnik-texnologik ko'mak shakli                     | 0.897    | 2.062    |
| Ta'limni qo'llab-quvvatlash                         | 0.825    | 2.313    |
| Tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash shakli | 0.890    | 1.903    |
| Qoniqish darajasi                                   | N/A      | 2.098    |

Anketaning har bir bo'limi va undagi o'zgaruvchilar normalligi "Skewness" (assimiterik jihati) va "Kurtosis" (ma'lumotlar joylashuvining normal taqsimotiga nisbatan yuqori yoki past bo'lishi) orqali aniqlandi, ular  $\pm 3.0$  oralig'ida bo'lib, tadqiqot uchun qabul qilinishi mumkin bo'lgan diapazonda joylashgan.

Yuqoridagi 2.3.4-jadvalda texnik-texnologik ko'mak shakli bo'yicha belgilangan o'zgaruvchilarning holati ( $M=2.062$ ,  $SD=0.659$ ) eng yuqori og'ish holati (skewness)ga ya'ni, 1,389 ga teng ekanligini ko'rsatadi. 0,222 ga teng bo'lgan eng past og'ish darajasi (skewness)tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash shakli bo'yicha keltirilgan o'zgaruvchilar aniqlandi ( $M=1.903$ ,  $SD=0.941$ ). Boshqa tomondan, texnik-texnologik ko'mak bo'yicha o'zgaruvchilar ( $M=2.062$ ,  $SD=0.659$ ) eng yuqori "Kurtosis" 3.091 va qoniqish darajasi o'zgaruvchisi esa ( $M=2.098$ ,  $SD=0.799$ ) 0.200 eng past "Kurtosis" ga ega.



Tadqiqot uchun tanlangan mustaqil o'zgaruvchilarning har biri uchun alohida tadqiqot gipotezalari tuzib chiqildi va bu gipotezalar qo'llab-quvvatlash shakllaridan qaysi biri tadbirkorlik subyektlarini ko'proq qoniqtirishini aniqlashda tadqiq etish maqsadlarini ifoda etadi.



2.3.1-rasm: Qo'llab quvvatlash tizimi shakllari bo'yicha KBSlari qoniqishini baholvchi so'rovnoma tadqiqotining konseptual tuzilmasi

**Birinci gipoteza** – tartibga solish shakli bo'yicha. Davlatning kichik biznesni tartibga solish siyosati har doim ham kutilgan natijaga olib kelavermaydi. Iqtisodchi olimlar Rumi va Hussainlar KBSlari uchun davlat tomonidan tartibga solish shaklini ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi va aksariyat hollarda muvaffaqiyatsizlikka olib keladigan omil sifatida o'z tadqiqotlarida xulosaga keldilar. Masalan, davlatning import o'rnini bosish strategiyasini amalga oshirish orqali kichik biznes subyektlari faoliyatini tartibga solish siyosati bunday korxonalarning asosan mahalliy bozorlarga e'tibor qaratishga va natijada, eksport hajmining kamayib ketishiga olib kelishi mumkin. Yana bir manbada, tartibga soluvchi turli davlat institutlari yoki qat'iy tartibga soluvchi muhit ko'pincha korrupsiya va poraxo'rlik bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltirishi mumkinligi asoslangan<sup>6</sup>. Shunday qilib, tadqiqotda kichik biznes subyektlarining faoliyatning turli bosqichlarida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining tartibga solish shaklidan qoniqish darajasini tekshirish uchun qo'shimcha sub gipotezalar shakllantirildi:

H1a: KBSlari faoliyatni yo'lga qo'yishda qo'llab-quvvatlashning mavjud tartibga solish shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

6 Pope (2001). Confronting Corruption: The Elements of National Integrity System. Transparency International: London.



H1b: KBSlari rivojlanish davrida qo'llab-quvvatlashning mavjud tartibga solish shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H1c: KBSlari o'sish bosqichida qo'llab-quvvatlashning mavjud tartibga solish shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

**Ikkinchi gipoteza** – moliyaviy ko'mak shakli bo'yicha. XMT hisobotida, institutsional moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyati yo'qligi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda KO'B rivojlanishi uchun asosiy to'siqdir<sup>7</sup>. Yana bir iqtisodchi olim Ngwuonugu, kredit olish imkoniyati va venchur kapitalining yetishmasligi Nigeriyada KO'Bning zaif o'sishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar ekanligini aniqladi<sup>8</sup>. Benzing va Chu rivojlanayotgan va o'tish davridagi iqtisodiyotlarda kichik va o'rta korxonalar duch keladigan muhim muammolar sifatida moliyaviy kapitalga kirish imkoniyatini cheklanganligini ko'rib chiqadilar. Bundan tashqari, ular kredit olish imkoniyatining yo'qligi nafaqat KO'B faoliyati uchun majburiy cheklov bo'lishi, balki o'sish va kengayishiga ham to'sqinlik qilishini kuzatishdi. Shunday qilib, kichik biznes subyektlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining moliyaviy ko'mak shaklidan qoniqish darajasini yanada aniqroq baholash uchun sub gipotezalar quyidagicha shakllantirildi:

H2a: KBSlari faoliyatni yo'lga qo'yishda qo'llab-quvvatlashning mavjud moliyaviy ko'mak shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H2b: KBSlari rivojlanish davrida qo'llab-quvvatlashning mavjud moliyaviy ko'mak shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H2c: KBSlari o'sish bosqichida qo'llab-quvvatlashning mavjud moliyaviy ko'mak shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

**Uchinchi gipoteza** – texnik qo'llab-quvvatlash shakli bo'yicha. Sohada tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlar Ganesh va Mehtalar o'z tadqiqotlarida kichik va o'rta biznes korxonalarining o'sishi va rivojlanishiga xodimlarning texnologik bilimlarining yetishmasligi hamda korxonalarining zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlantilmaganligi to'siq bo'layotgani bilan izohlaydi<sup>9</sup>. Shunday qilib, kichik biznes subyektlarining faoliyatning turli bosqichlarida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining texnik-texnologik ko'mak shaklidan qoniqish darajasini tekshirish uchun qo'shimcha sub gipotezalar shakllantirildi:

H3a: KBSlari faoliyatni yo'lga qo'yishda qo'llab-quvvatlashning mavjud texnik-texnologik ko'mak shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H3b: KBSlari rivojlanish davrida qo'llab-quvvatlashning mavjud texnik-texnologik ko'mak shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H3c: KBSlari o'sish bosqichida qo'llab-quvvatlashning mavjud texnik-texnologik ko'mak shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

**To'rtinchi gipoteza** – ta'limni qo'llab-quvvatlash shakli bo'yicha. Kichik biznes korxonalarining o'sishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni turli manbalar asosida o'rganar ekanmiz, mamlakatda kichik biznes korxonalarining o'sishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir qiluvchi omillardan biri – bu KBSlarida faoliyat yurituvchi rahbar va xodimlarning iqtisodiy hamda kasbiy bilim va ko'nikmalarining yetarli emasligi bilan bog'liqligi ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, mamlakatning chekka xududlarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar va ularning xodimlarining savodxonlik darajasi pastligi va tadbirkorlikni o'qitish dasturlari qamrovi keng emasligi faoliyatning rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Ular, shuningdek, kichik biznes korxonalari faoliyatini kengayigan sayin yuqori malakali boshqaruv va xodimlarning yetishmasligi holati ortib boradi. Shunday qilib, kichik biznes subyektlarining faoliyatning turli bosqichlarida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining ta'limni qo'llab-quvvatlash shaklidan qoniqish darajasini tekshirish uchun qo'shimcha sub gipotezalar shakllantirildi:

H4a: KBSlari faoliyatni yo'lga qo'yishda qo'llab-quvvatlashning mavjud ta'limni qo'llab-quvvatlash shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H4b: KBSlari rivojlanish davrida qo'llab-quvvatlashning mavjud ta'limni qo'llab-quvvatlash shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H4c: KBSlari o'sish bosqichida qo'llab-quvvatlashning mavjud ta'limni qo'llab-quvvatlash shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

**Beshinchi gipoteza** – tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash shakli bo'yicha. Iqtisodchi olim Levining Jahon banki konferensiyasiga taqdim etgan ma'ruzasida kichik va o'rta korxonalarining rivojlanishi va raqobat kurashini yengib chiqishi uchun yetarlicha tadqiqot va ishlanmalar hamda innovatsiyalarga ko'proq e'tibor va

7 ILO (2002). "Creating a Conducive Policy Environment for Micro, Small and Medium Sized Enterprises in Pakistan." SEED Working Paper No.29.

8 Ngwuonugu, A., B (2005). "Small and Medium Enterprises (SMEs) in Nigeria: Problems and Prospects, PhD Dissertation St. Clements University, Nigeria (unpublished).

9 Ganesh, L., Mehta, A. (2010). Critical success factors for successful enterprise resource planning implementation at Indian SMEs, International Journal of Business, Management and Social Sciences, Vol.1, No.1, 2010, pp. 65-78.



mablag' ajratish lozimligini ta'kidlab o'tadi<sup>10</sup>. Shuningdek, boshqa ko'plab ilmiy tadqiqotlarda davlat siyosatining innovatsiyani ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish jarayonida universitetlar va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ahamiyat katta ekanligi ham e'tirof etilgan. Bu borada O'zbekistonda KBSlarini rag'batlantirishda hukumatning roli qay darajada ekanligini aniqlash muhim hisoblanadi. Shuning uchun, kichik biznes subyektlarining faoliyatning turli bosqichlarida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash shaklidan qoniqish darajasini tekshirish uchun qo'shimcha sub gipotezalar shakllantirildi:

H5a: KBSlari faoliyatni yo'lga qo'yishda qo'llab-quvvatlashning mavjud tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H5b: KBSlari rivojlanish davrida qo'llab-quvvatlashning mavjud tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

H5c: KBSlari o'sish bosqichida qo'llab-quvvatlashning mavjud tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash shaklidan qoniqish hosil qilishadi.

### 2.3.5-jadval: So'rovnoma olingan ma'lumotlarni ko'p omilli regressiya tahlili natijalari

| Qo'llab-quvvatlash shakllari (gipotezalar)   | Faoliyatni yo'lga qo'yish bosqichi |       | Rivojlanish bosqichi |       | O'sish bosqichi |       | R2   |
|----------------------------------------------|------------------------------------|-------|----------------------|-------|-----------------|-------|------|
|                                              | Mean                               | SD    | Mean                 | SD    | Mean            | SD    |      |
| Tartibga solish                              | 2.150                              | 0.971 | 2.09                 | 0.912 | 1.98            | 0.880 | .163 |
| Moliyaviy ko'mak                             | 2.70                               | 1.106 | 2.54                 | 1.036 | 2.53            | 1.042 | .108 |
| Texnik-texnologik ko'mak                     | 2.05                               | 0.761 | 2.06                 | 0.689 | 2.07            | 0.719 | .094 |
| Ta'limni qo'llab-quvvatlash                  | 2.33                               | 0.985 | 2.30                 | 0.926 | 2.31            | 0.918 | .161 |
| Tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash | 2.33                               | 0.985 | 2.30                 | 0.926 | 2.31            | 0.918 | .064 |

Shunday qilib, so'rovnoma asosida olingan ma'lumotlar ko'p omilli regressiya uslubi yordamida tahlil qilib chiqildi. Ushbu uslubdagi tahlil kichik biznes subyektlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining yuqorida keltirib o'tilgan beshta shaklidan qoniqish darajasini tekshirish uchun tadbirkorlikni rivojlanishining faoliyatni yo'lga qo'yish, rivojlanish va o'sish bosqichlari bo'yicha amalga oshirildi. Xuddi shu tahlil uslubi asosida birinchi gipoteza bo'yicha O'zbekistonda kichik biznes subyektlari davlatning tartibga solish siyosati kontekstida o'z bizneslarining rivojlanish bosqichida qoniqish hosil qilishgani ma'lum bo'ldi. Ya'ni, davlatning tartibga solish siyosati asosan faoliyatini rivojlantirayotgan tadbirkorlik subyektlariga ko'proq manfaat keltirishi aniqlandi.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi shunadn iborat bo'dliki, davlatning moliyaviy ko'mak siyosati asosan rivojlanish va o'sish bosqichlaridagi kichik biznes subyektlariga ko'proq tatbiq etiladi va bu bosqichdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar qo'llab-quvvatlashning moliyaviy ko'mak shaklidan qisman qoniqish hosil qilganliklari ma'lum bo'ldi.

Tadqiqot natijasida yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, davlatning kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimida korxonalarga texnik-texnologik jihatdan ko'mak berish siyosati kichik biznes subyektlarining rivojlanish bosqichida ko'proq kuzatilishi tadbirkorlarning qoniqishini aks ettirgan. Faoliyatni yo'lga qo'yish bosqichida davlatning texnik-texnologik qo'llab-quvvatlash siyosatidan tadbirkorlar qisman qoniqishlarini bildirishgan.

Shuningdek, tahlillar natijasi so'rovda ishtirok etgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan hukumatning kichik biznes subyektlarini o'qitish va qayta tayyorlash siyosati bo'yicha har uchta bosqichda ham yetarlicha qoniqmaslik holati aniqlandi. Bunga asosiy sabab, tadbirkorlarni o'qitish dasturlarining yetarli emasligi hamda qamrov darajasi juda past ekanligini angaltadi. Xuddi shunday natija davlatning kichik biznes subyektlarini tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha qo'llab-quvvatlash shaklida ham kuzatildi. Ya'ni, kichik biznes subyektlarining rivojlanishning turli bosqichlarida davlat tomonidan tadqiqot va ishlanmalar nuqtayi nazaridan yetarlicha qo'llab-quvvatlanmasligi ma'lum bo'ldi.

Umumiy jihatdan olib qaraganda kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimidan qoniqish darajasi yetarli emas ya'ni, o'rtachadan pastroqni ko'rsatmoqda. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, KBSlari faoliyatini yanada samaraliroq qilish uchun mavjud qo'llab-quvvatlash tizim shakllarini takomillashtirish lozim, deb hisoblaymiz.

10 Ivy (1997). "Entrepreneurship Strategies and Problems in Post Communist Europe: A Survey of SMEs in Slovakia." Journal of Small Business Management 35(3): 93-98



### 2.3.6-jadval: KBSlari o'rtasida ular faoliyatiga to'siq bo'layotgan muammolar yuzasidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari

| № | Muammolar ro'yxati                                                                                                                                  | Umumiy ball | O'rtacha qiymat | Ustuvorlik bo'yicha o'rni |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|-----------------|---------------------------|
| 1 | Soliq tizimini takomillashtirish, yengillashtirish va soddalashtirish                                                                               | 180         | 4,55            | 1                         |
| 2 | Umuman tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun infratuzilmani takomillashtirish, shu jumladan, chinakam yordam beruvchi institutlarni tashkil etish | 144         | 3,85            | 2                         |
| 3 | Sun'iy va ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish                                                                                                       | 110         | 2,75            | 3                         |
| 4 | Sanoat tadbirkorligi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, biznes-inkubatorlar, texnoparklar tashkil etish                           | 106         | 2,4             | 4                         |
| 5 | Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslardan foydalanishini, shu jumladan kredit mablag'laridan foydalanishni soddalashtirish          | 58          | 1,45            | 5                         |
| 6 | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda axborot va maslahat yordamini ko'rsatish                                                   | 52          | 1,3             | 6                         |
| 7 | Tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash sohasidagi dasturiy hujjatlarni to'ldirish                                                       | 38          | 0,95            | 7                         |

Bundan tashqari tadqiqot davomida tadbirkorlik subyektlari o'rtasida ularni qiynayotgan muammolar bo'yicha ham savollar asosida so'rov o'tkazildi. Ushbu savollar faoliyatda to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan yet-tita mummaolar guruhiga ajratilagan holda shakllantirildi. Savollar bo'yicha tadbirkorlarning nuqtayi nazarini aniqlash natijasida dastlab 5 ballik tizimda jami ball va o'rtacha ball hisoblab chiqilib, har bir masala bo'yicha o'rin ustuvorligiga ko'ra saralab olindi (2.3.6-jadval).

Ijtimoiy tadqiqotning yana bir muhim jihati, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ko'maklashuvchi tashkilot Savdo-sanoat palatasining faoliyatini baholashga oid savolga respondentlardan turlicha javoblar olindi. Ya'ni, so'rovnoma siz Savdo-sanoat palatasi faoliyatidan qoniqasizmi degan savolga 183 ta respondentlarning 28 foizi (51 tasi) to'liq qoniqishini, 31 foizi (56 tasi) o'rtacha qoniqishini, 26 foizi (47 tasi) qoniqmasligini hamda 15 foizi (27 tasi) esa palata faoliyatidan kerakli ko'mak olmasliklarini bildirishgan. Ushbu so'rovnoma natijasidan respondentlarning qariyb 60 foizi palata faoliyatidan qoniqishlarini, qolgan 41 foizi esa deyarli qoniqmasliklarni bildirishgan.



### 2.3.2-rasm: Respondentlarning Savdo-sanoat palatasining faoliyatidan qoniqishi bo'yicha bergan javoblar ko'lami

Savdo sanoat palatasi aholini tadbirkorlik va biznes faoliyatiga yanada keng jalb qilish va a'zolari sonini ortirish bilan bir qatorda o'z biznesini boshlashga, qolaversa, yuqoridagi tadqiqotda ko'rib chiqilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining turli bosqichlarida yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida va sifatli hal etishlari muhim masalalardan hisoblanadi.



Biz dissertatsiyamizning 2.2-paragrafida Savdo-sanoat palatasi tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va ularga ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha tahlilini ko'rib chiqdik. Natijalar ijobiy bo'lishiga qaramasdan palataning ayrim vakolatlari va imkoniyatlari yetarli emasligi tadbirkorlik subyektlariga yetarli darajada ko'mak berolmasligiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun, 2023-yilning yanvar oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga binoan Savdo sanoat palatasi vakolatlari kengaytirilib, hukumatga ko'rib chiqishi majburiy bo'lgan masala kiritish, tadbirkor manfaatini ko'zlab Oliy sudga ariza berish vakolatlari berildi. Shuningdek, Savdo-sanoat palatasi hukumat bo'ysunuvidan to'liq chiqarilib, tadbirkorlar manfaatining chinakam himoyachisiga aylanadigan bo'ldi.

## XULOSA

Shunday qilib, tadbirkorlik subektlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari soliqqa tortish tizimini, umuman, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirishni takomillashtirish, shu bilan birga, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rish zarurligini aniqladi.

Shuningdek, ushbu so'rov mamlakatdagi biznes muammolarini hal etishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ikki xil jihatni ochib berdi. Avvalo, soliqqa tortish tizimi masalasining birinchi o'ringa qo'yilishi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun soliq bo'yicha aniq yengilliklar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Mazkur metodologiyadan foydalanish O'zbekiston Respublikasida hozirgi sharoitda tadbirkorlikni rivojlantirish va rag'batlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Olib borilgan tadqiqotlar yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, tadbirkorlarning qariyb 45 foizi davlatdan yetarlicha ko'mak olmaydilar, chunki ular tadbirkorlar uchun joriy etilayotgan imtiyoz va yengilliklar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega emaslar. Bu, albatta, "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash" dasturi to'g'risida yetarlicha ma'lumot tarqatilmayotganidan dalolat beradi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, davlat idoralari mamlakatda kichik biznesning o'sishi va rivojlanishi uchun yuqoridagi barcha parametrlarga ko'proq hissa qo'shishi kerak. Bundan tashqari, tadbirkorlar faoliyatini yo'lga qo'yish bosqichida davlat organlari tomonidan yanada yaxshi qo'llab-quvvatlanishini istaydi. Biroq, ko'pgina parametrlar uchun davlat yordami KBSlarining o'sish va rivojlanish bosqichlarida mavjudligini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda KBSni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun bu tizimi samaradorligini tegishli idoralar tomonidan yana bir bor tahlil qilib chiqish hamda qo'llab-quvvatlash tizimining ta'sirchan va samarali usullarini joriy qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqot davomida shakllangan xulosa asosida, kichik biznes subyektlari mamlakatning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, bu subyektlar har qanday mamlakatda ish o'rinlarini yaratish va aholini ish bilan bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish uchun asosiy manba hisoblanshini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Ushbu tadqiqot davomida murojaat qilingan adabiyotlar va manbalar shuni ko'rsatadiki, ushbu turdagi korxonalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi hissasi hukumat va boshqa ixtisoslashgan tuzilmalar ko'magi va qo'llab-quvvatlovizis ta'sirchan bo'lmaydi. Shuning uchun, kichik biznes korxonalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, rivojlanish va o'sish bosqichlarida ham doimiy ravishda davlat ko'magiga ehtiyoj sezadi. Ayniqsa bunday ehtiyoj rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'proq kuzatiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Acs, Z. J(2008). "Introduction to Public Policy in an Entrepreneurial Society" p-17, Public Policy in an Entrepreneurial Economy: creating the conditions for business growth, in Acs, Z. and Stough, R. (Eds.) Washington, Springer.
2. Pope (2001). Confronting Corruption: The Elements of National Integrity System. Transparency International: London.
3. ILO (2002). "Creating a Conducive Policy Environment for Micro, Small and Medium Sized Enterprises in Pakistan."- SEED Working Paper No.29.
4. Ngwuonugu, A, B(2005). "Small and Medium Enterprises(SMEs) in Nigeria: Problems and Prospects, PhD Dissertation St. Clements University, Nigeria (unpublished).
5. Ganesh, L., Mehta, A(2010). Critical success factors for successful enterprise resource planning implementation at Indian SMEs, International Journal of Business, Management and Social Sciences, Vol.1, No.1, 2010, pp. 65-78.
6. Ivy (1997). "Entrepreneurship Strategies and Problems in Post Communist Europe: A Survey of SMEs in Slovakia." Journal of Small Business Management 35(3): 93-98.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5087-sonli qarori <https://lex.uz/uz/docs/6060527>.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.